

Xujjat kodi: KQIN va KB-STT-3	“NAVOIYAZOT” AKSIYADORLIK JAMIYATI	Nusxa raqami <u>1</u>
---	---	---------------------------------

“TASDIQLAYMAN”

Boshqaruv raisi


F.X.Samadov

“23” 06 2026 y

KONTRAGENTLARNI TEKSHIRISHGA OID YO‘RIQNOMA

Navoiy sh.

I. Umumiy qoidalar

1. Ushbu yo'riqnoma "Navoiyazot" AJ (keyingi o'rinlarda – Tashkilot) tomonidan davlat xaridlarini tashkil etish va o'tkazishning tartib-taomillarini, shartnoma tuzishda ishtirokchilarni majburiy tekshirishning (keyingi o'rinlarda – Xarid jarayonlari ishtirokchilarini tekshirish) asosiy talablari, tartibi va usullarini hamda xaridlar bo'yicha korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens boshqarmasi xulosasining majburiyligini belgilaydi.

2. Xarid jarayonlari ishtirokchilarini tekshirishning maqsadlari quyidagilardan iborat:

tashkilot xodimlarining manfaatlar to'qnashuvi va shaxsiy manfaatdorligi bilan bog'liq bo'lgan korrupsiyaviy xatarlarni kamaytirish;

ishtirokchilarni affilanganligi, til biriktirish va nosog'lom raqobatni oldini olish;

insofsiz ijrochi bilan shartnoma tuzish xatarini kamaytirish;

xarid jarayoni ishtirokchisining shartnomada belgilangan tovarlarni yetkazib berish yoki xizmat ko'rsatish, ishlarni bajarish imkoniyatini baholash;

Kontragent bilan shartnoma tuzish to'g'risidagi qarorni tegishli darajada ehtiyotkorlik bilan qabul qilish.

4. Xarid jarayonlari ishtirokchilarini tekshirish xaridning barcha ishtirokchilari, shu jumladan, ular o'rtasidagi aloqa mavjudligi ehtimoli nuqtayi-nazaridan ham amalga oshiriladi.

5. Tekshiruv ushbu yo'riqnomaning 7- va 8-bandida ko'rsatilganlardan tashqari barcha yangi Kontragentlarga nisbatan, shuningdek, amaldagi Kontragentlarga nisbatan kamida bir yilda bir marta amalga oshiriladi.

6. Ushbu yo'riqnomaning 7- va 8-bandida ko'rsatilgan holatlardan tashqari, Kontragent tekshiruvi natijalari bo'yicha xulosani olmasdan turib shartnomani imzolash va (yoki) to'lovlarni amalga oshirishga yo'l qo'yilmaydi.

7. Elektron do'kon va boshlang'ich narxni pasaytirish uchun o'tkaziladigan auksion shaklida o'tkazilgan xaridlar bo'yicha Kontragentlar tekshirilmaydi (shubxa ostida bo'lsa yoki murojaatlarga ko'ra tekshirilishi mumkin).

8. Shuningdek, tekshiruv quyidagi Kontragentlarga nisbatan amalga oshirilmasligi mumkin:

tashkilot markaziy apparati bilan yoki tarkibiy va hududiy bo'linmalar o'zaro shartnomaviy munosabatga kirishayotgan bo'lsa;

kommunal va boshqa shu kabi xizmatlarni (shu jumladan, elektr ta'minoti, gaz ta'minoti, issiqlik ta'minoti, muhandislik-texnika ta'minoti, suv ta'minoti, suv chiqarish, oqava suvlarni tozalash, qattiq maishiy chiqindilarni utilizatsiya qilish (ko'mish) tarmoqlariga ulanish), shuningdek davlat tomonidan tartibga solinadigan tovarlar (ishlarning, xizmatlarning) narxlar (tariflar) bo'yicha yetkazib beruvchi hisoblangan Kontragentlar;

O'zbekiston Respublikasining tabiiy monopoliyalari hisoblangan Kontragentlar.

9. Ushbu yo'riqnomada quyidagi asosiy tushunchalar qo'llanilgan:

ijrochi – Tashkilotda tuzilgan xarid komissiyasi a'zolari;

Kontragent – Tashkilotning xarid jarayonlari doirasida shartnomaviy munosabatlarga kirishishni rejalashtirayotgan har qanday yuridik yoki jismoniy shaxs;

Kontragent/Kontragentning benefitsiar egasi (yakuniy benefitsiar) - Kontragentning xususiy egasi bo'lgan yoki ushbu Kontragent uchun majburiy bo'lgan ko'rsatmalar berish, qabul qilinayotgan qarorlarga ta'sir ko'rsatish yoki boshqacha tarzda uning xarakatlarini bevosita yoki bilvosita nazorat qilish huquqi yoki imkoniyatiga ega bo'lgan jismoniy shaxs;

korruptsiyaviy xarakatlar – xodim tomonidan bevosita yoki bilvosita shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali pora beruvchi manfaatlari yo'lida harakat yoki harakatsizlik uchun moddiy manfaatdor bo'lishi, shu jumladan pul, qimmatbaho qog'oz, boshqa ko'rinishdagi mulk va mulkiy huquqlar, mulkiy harakterdagi xizmatlar olish, talab qilish, undirish, taklif qilish yoki berish, pora berish va/yoki olish yoki bunda vositachilik qilishda, rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to'lovlar undirish (pora olish) va boshqa noqonuniy maqsadlarda o'z xizmat vazifalaridan noqonuniy foydalanish;

manfaatlar to'qnashuvi – Tashkilot xodimining shaxsiy manfaati (bevosita yoki bilvosita) u tomonidan xizmat vazifalarini tegishli tarzda bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoki ko'rsatishi mumkin bo'lgan va xodimning shaxsiy manfaati bilan Tashkilot manfaatlari o'rtasida ziddiyat yuzaga kelayotgan yoki kelishi mumkin bo'lgan vaziyat;

maxfiy axborot – bu olinishi, ishlanishi, uzatilishi yoki foydalanishi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi yoki axborot egasining ichki hujjatlariga muvofiq cheklanadigan har qanday shakldagi axborot;

tashabbuskor – Tashkilot tarkibiy bo'linmasi (tovar, ish va xizmatlarni sotib olish tashabbuskori);

xodimning shaxsiy manfaatdorligi – Tashkilot xodimi, uning yaqin qarindoshi yoki xodim bilan bog'langan shaxslar tomonidan xodimning mansab yoki xizmat vazifalarini tegishli tarzda bajarishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan (shaxsiy, ijtimoiy, moliyaviy, siyosiy va boshqa tijorat yoki notijorat manfaatlari) pul mablag'lari, moddiy va nomoddiy qadriyatlar, boshqa mulk, foyda, imtiyoz va afzalliklar ko'rinishidagi shaxsiy foyda olish.

yaqin qarindoshlar – ota-onalar, aka-ukalar, opa-singillar, o'g'illar, qizlar, er-xotinlar, shuningdek er-xotinlarning ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari;

Korruptsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati (Komplayens) — bu tashkilot yoki davlat organi faoliyatini qonunchilik, xalqaro standartlar va ichki odob-axloq qoidalariga muvofiqligini ta'minlovchi ichki nazorat tizimidir. Uning

asosiy maqsadi korrupsiya xavf-xatarlarini oldindan aniqlash, ularga chek qo'yish va manfaatlar to'qnashuvini boshqarishdan iborat.

II. Tekshiruvni boshlash tartibi, tekshiruv uchun talab qilib olinadigan hujjatlar va axborot manbalari

10. Xarid jarayoni doirasida uning ishtirokchilarini tekshirish xarid komissiyasi tomonidan ishtirokchilar bergan takliflarni (solingan konvertlarni ochilganidan keyin) baholash jarayonida, biroq xarid qilish tartib-taomillari yakunlari bo'yicha g'olib bo'lgan taklifning aksepti to'g'risida qaror qabul qilinguniga qadar amalga oshiriladi.

11. Xarid jarayoni doirasida qonunchilik va Tashkilotning ichki hujjatlari tomonidan o'rnatilgan muddatlarga rioya qilinishi ustidan tekshiruvni amalga oshirish uchun ma'sul – tegishli Xarid komissiya raisi yoki shartnoma tashabbuskori hisoblanadi (agar xarid to'g'ridan to'g'ri shartnoma bo'yicha amalga oshirilayotgan bo'lsa).

12. Kontragentlar tekshiruvi Komplayens tomonidan hujjatlar tashabbuskordan ushbu yo'riqnomaning 16-bandida ko'rsatilgan hujjatlar olingan sanadan 5 kundan ortiq bo'lmagan muddatda amalga oshiriladi.

13. Tekshiruvni belgilangan muddatlarda o'tkazish imkoni bo'lmagan taqdirda uning davomiyligi Xarid komissiyasi raisi bilan kelishilgan holda 3 kundan ortiq bo'lmagan muddatga yozma shaklda uzaytirilishi mumkin.

14. Kontragentlarning tekshiruvini shoshilinch tartibda o'tkazish zaruriyati mavjud bo'lgan hollarda, tashabbuskor tomonidan shoshilinchlik asoslangan, tekshiruvni o'tkazishning zarur muddatlari ko'rsatilgan xizmat xati bilan Xarid komissiyasiga murojaat qiladi. Shoshilinch tekshiruvni o'tkazish Xarid komissiyasi qarori asosida yo'l qo'yiladi.

15. Kontragentlarni tekshirish uchun hujjatlarni to'plash va taqdim qilish uchun Xarid komissiyasi raisi yoki tashabbuskor mas'ul bo'ladi.

16. Kontragentni tekshirish uchun Komplayensga quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

Kontragentning o'zi ushbu yo'riqnomaga 1-ilovaga muvofiq shaklda to'ldirgan yakuniy benefitsiarlari to'g'risidagi ma'lumotnoma;

Kontragentdan olingan hujjatlar nusxasi (ushbu yo'riqnomaga 2-ilova);

Kontragentning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki hujjatlari (mavjud bo'lsa) nusxasi (siyosatlar, nizomlar, odob-ahloq qoidalari, korrupsiyaga qarshi dasturlar va b.).

17. Ushbu yo'riqnomaning 16-bandida ko'rsatilgan hujjatlarni olish O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq majburiy hisoblanadi, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Kontragentning ichki hujjatlari va yakuniy benefitsiarlar to'g'risidagi ma'lumotnoma bundan mustasno. Kontragent korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki hujjatlarni va yakuniy benefitsiarlar to'g'risidagi ma'lumotnomani taqdim etishni rad etgan taqdirda, tashabbuskor bu haqda

Kontragent ustidan taqdim etilgan hujjatlar asosida tekshiruvni amalga oshiradigan Komplayensga xabar beradi.

18. Kontragentdan olingan barcha hujjatlar notarial tarzda yoki Kontragentning vakolatli vakili tomonidan tegishli tarzda tasdiqlangan bo'lishi lozim. Taqdim etiladigan hujjatlar amal qilayotgan bo'lishi, davlat reyestrlari hujjatlari esa tekshiruv sanasiga qadar 30 (o'ttiz) kundan ortiq bo'lmagan muddatda olingan bo'lishi kerak.

19. Kontragentni tekshirish uchun ma'lumotlar to'plash Komplayens tomonidan Kontragent, uning egalari va rahbarlari, faoliyati to'g'risida yaxlit va xolis fikrga ega bo'lish, shuningdek, undan olingan hujjat va ma'lumotlarning ishonchligi, shu jumladan, ularning ishonchsizligi bo'yicha belgilar yo'qligini (soxtalashtirish alomatlari mavjud emasligini) baholash uchun amalga oshiriladi.

Kontragentlarni tekshirish doirasida Komplayens quyidagilarni tahlil qiladi:

Kontragent tomonidan taqdim etilgan axborot va hujjatlar. Ushbu yo'riqnomaga 2-ilovada ko'rsatilgan hujjatlarni Kontragentdan olish imkoni bo'lmaganda yoki olingan hujjat yoki axborotlarning ishonchli emasligi (soxtalashtirilgani) belgilari mavjud bo'lgan hollarda Komplayens Kontragent tekshiruv natijalari to'g'risidagi xulosada tegishli belgi qo'yadi;

ochiq manbalardan olingan ma'lumotlar. Komplayens 3-ilovada ko'rsatilgan axborot manbalaridan foydalanishi mumkin. Ushbu ro'yxat tavsiyaviy bo'lib, zaruriyat tug'ilganda Komplayens boshqa manbalardan foydalanishi mumkin;

tegishli tashkilotlarga rasmiy so'rovnoma yuborish yo'li bilan olingan hujjatlar;

Tashkilotning ichki resurslari, shu jumladan, Kontragentlar tekshiruvlari reyestri, xodimlarining manfaatlar to'qnashuvi reyestri va boshqalar.

20. Kontragentni tekshirish uchun ishlatilgan manbalar qonuniylik va xolislik talablariga javob berishi kerak.

Ma'lumotlar rasmiy ochiq manbalar orqali o'rganiladi, zaruratga ko'ra so'rov asosida tegishli idoralardan ham ma'lumotlar olinishi mumkin. Shuningdek, Tashkilotda faoliyati yo'lga qo'yilgan "Yagona raqamli platforma" tizimining "Komplaens moduli" va 1C "G'aznachilik" tizimining "Komplaens nazorati" modullari orqali manfaatlar to'qnashuvi oldini olish va korrupsiyaga yo'l qo'ymaslik maqsadida xaridlar jarayoni va Kontragentlar tekshirilib, Komplayens tomonidan tegishli xulosalar beriladi.

21. Zaruriyat bo'lganda Komplayens tekshiruv davomida Kontragentlarni joyiga chiqib, o'rganishi mumkin. Bu kabi tekshiruvni o'tkazish uchun Komplayens o'z rahbariyati bilan kelishishi lozim.

Sayyor tekshiruv davomida tashkilot rahbari (vakolatli vakili) bilan uchrashuv bayonnomasi tuzilib, unda Kontragentdan olingan, dastlab Komplayens tomonidan asl nusxalari bilan taqqoslangan hujjatlarning tasdiqlangan nusxalari sanab o'tiladi. Olingan hujjatlar nusxalarining va (yoki) Kontragentning vakolatli vakili tomonidan taqdim etilgan izohlar ro'yxati tekshirilayotgan Kontragentning vakolatli vakili va

Komplayens tomonidan imzolangan alohida ro'yxat ko'rinishida rasmiylashtirilishi va uchrashuv bayonnomasiga ilova qilinishi kerak.

III. Kontragentlarni tekshirish metodologiyasi

22. Kontragentlarni tekshirish quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladi:

1) Kontragentning huquq layoqati, moliyaviy barqarorligi, ishonchliligi va u bilan bo'lgan o'zaro munosabatlar tarixini tekshirish, shu jumladan:

a) shartnomani bajarish uchun zarur texnik, moliyaviy, moddiy, xodimlar va boshqa resurslarning mavjudligi;

b) shartnoma tuzish uchun qonuniy huquqqa egalik;

v) soliqlar va yig'implarni to'lash bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlikning mavjud emasligi;

g) Kontragentlarga nisbatan joriy etilgan bankrotlik tartib-taomillarining mavjud emasligi;

d) insofsiz ijrochilarning yagona reyestrda qayd etilmaganligi;

e) Kontragentlarni affilanganligi, til biriktirish va nosog'lom raqobatni mavjud emasligi;

2) Kontragentning ish sohasidagi obro'-e'tibori;

3) manfaatlar to'qnashuvi mavjud emasligini tekshirish.

Ko'rsatilgan yo'nalishlar bo'yicha tekshiruv o'tkazish majburiy hisoblanadi. Tekshiruv yo'nalishlari ro'yxati har bir alohida holatda ijrochining xarid komissiyasi qarori bilan kelishilgan talabi bilan kengaytirilishi mumkin. Bunda, tekshirish yo'nalishi davlat xaridlarini tartibga soluvchi qonunchilikka zid bo'lishi va (yoki) raqobat tamoyillarini cheklashga olib kelishiga yo'l qo'yilmasligi lozim.

23. Komplayens foydalanish mumkin bo'lgan axborot manbalarining tahlilini amalga oshiradi va 25-27-bandlarda ko'rsatilgan har bir yo'nalishga nisbatan quyidagi Kontragentning tekshiruv natijalari to'g'risida xulosada ko'rsatilgan ma'lumotlarning bor-yo'qligini belgilaydi.

24. Ushbu yo'riqnoma amalga kiritilgunga qadar shartnomaviy munosabatlarda bo'lgan Tashkilotning amaldagi Kontragentni tekshirishda Komplayens bundan avvalgi shartnomaviy munosabatlarning davomiyligi, ushbu Kontragent bilan o'zaro harakat tajribasi va uning Tashkilot bilan avval tuzilgan shartnomalar bo'yicha majburiyatlarni bajarishdagi halolligini tekshiradi.

Yangi Kontragentni tekshirishda Komplayens Kontragent tomonidan shu kabi shartnomalarning bajarilganligi to'g'risidagi axborot va boshqa buyurtmachilar (mijozlar) bergan tavsiyanomalarni tahlil qiladi hamda imkon darajasida ushbu Kontragentning boshqa mijozlari oldidagi shartnomaviy majburiyatlarini bajarishdagi halolligini tekshiradi.

25. Kontragentning huquq layoqatini, moliyaviy barqarorligi, ishonchliligi va u bilan bo'lgan munosabatlar tarixini tekshirish doirasida Komplayens quyidagi ma'lumotlarni aniqlaydi:

Tadbirkorlik subyektlarining Yagona reyestrda Kontragentning borligi;
Kontragentning yuridik va amaldagi manzili;
Kontragent rahbari va ta'asischilarining F.I.Sh.;
Kontragent asosiy faoliyat turining xarid predmetiga muvofiqligi;
Kontragent faoliyatini tugatish, qayta tashkil etish, o'ziga nisbatan joriy etilgan bankrotlik tartib-taomillarining mavjud emasligi;

Kontragentda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq ravishda litsenziyalanishi kerak bo'lgan faoliyat turlarini amalga oshirish uchun zarur litsenziyalarning (ruqsatnomalar) mavjudligi;

Kontragentda ochiq axborot, taqdim etilgan hujjatlar va buxgalteriya hisobdorligiga muvofiq, asosiy mablag'lar, xususiy kapital, xodimlar va boshqa texnik, moliyaviy, moddiy va Tashkilot oldidagi majburiyatlarni bajarish uchun zarur bo'lgan boshqa resurslarning mavjudligi;

Kontragent nomidan Tashkilot bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishayotgan shaxsda tegishli vakolatning mavjudligi;

Kontragent maxsus axborot portalida insofsiz ijrochilarning yagona reyestriga kiritilmaganligi;

Kontragentning so'nggi ikki yil ichida Tashkilot oldidagi shartnomaviy majburiyatlarning o'z vaqtida bajarmaganligi yoki ularning lozim darajada bajarmaganligi to'g'risida ma'lumotlar mavjud emasligi;

Kontragentda soliqlar va yig'imlarni to'lash bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlikning mavjud emasligi.

26. Kontragentning ish sohasidagi obro'-e'tiborini tekshirish doirasida Komplayens quyidagi ma'lumotlarni aniqlaydi:

ochiq axborot manbalarida Kontragent, uning mulkiy egalari, shu jumladan benefitsiar mulkiy egalari yoki rahbarlarning firibgarlik, soxtalashtirish va korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlar yoki boshqa noqonuniy faoliyatda ishtirok etganligi to'g'risidagi axborot mavjud emasligi;

Kontragent rahbariga nisbatan huquqni muhofaza qiluvchi yoki boshqa davlat organlarida qoralovchi ma'lumot yoki materiallarning mavjud emasligi;

Kontragentning ishbilarmonlik ahloqiy me'yorlari va korrupsiyaga qarshi kurash masalalarini tartibga soluvchi tartib-taomil va siyosatlarning mavjudligi;

Kontragentning mulk egalari yoki rahbarlariga (boshqaruv organlari a'zolari) nisbatan uning moliyaviy-xo'jalik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan jinoyat ishlari mavjud emasligi;

Kontragent, uning mulk egalari yoki boshqa rahbarlari to'g'risida boshqa salbiy ma'lumotlar mavjud emasligi;

27. O'zbekiston Respublikasi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunining 14-moddasiga muvofiq, Davlat buyurtmachisining, davlat xaridlari elektron tizimi operatorining, ixtisoslashgan tashkilotning, ekspert tashkilotining mansabdor shaxslari va boshqa xodimlari, shuningdek, xarid komissiyasining a'zolari hamda ekspertlar xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirishda o'z ishtirokidagi davlat

xaridlariga doir bitimning natijasi bo'lgan har qanday shaxsiy foydani bevosita yoki bilvosita olish huquqiga ega emas.

Shunga muvofiq, Komplayens ushbu yo'riqnomaning 1-ilovasiga muvofiq shaklda to'ldirilgan Kontragentning yakuniy benefitsiarlari to'g'risidagi ma'lumotnomada aks ettirilgan ma'lumotlarning tadibirkorlik subyektlari Yagona davlat reyestri ma'lumotlariga muvofiqligini tekshiradi. Ushbu tekshiruv Kontragentning rahbarlari va ta'sischilariga nisbatan ham amalga oshiriladi. Shuningdek, Komplayens manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi yoki yo'qligini quyidagi mezonlar bo'yicha tekshiradi:

Kontragentning yagona yoki mulkiy egalaridan biri, shu jumladan, benefitsiar mulkiy egasi – bu Xarid jarayonining boshqa ishtirokchisi rahbari yoki uning yaqin qarindoshi emasligi;

Kontragentni tanlashda ishtirok etuvchi tashabbuskor yoki Tashkilotning boshqa xodimlari yoki ularning yaqin qarindoshlari uning ustav kapitalidagi ommaviy aylanmada bo'lmagan aksiyalari yoki hissalariga, yoki Kontragentning Respublika fond birjasida yoki yana boshqa bir fond birjasida ommaviy aylanmada bo'lgan 10% dan ortiq qimmatli qog'ozlariga egalik qilmasligi;

Kontragentni tanlashda ishtirok etuvchi tashabbuskor yoki Tashkilotning boshqa xodimlari yoki ularning yaqin qarindoshlari Kontragent boshqaruv kengashi tarkibiga kirmasligi yoki uning faoliyati natijalaridan shaxsiy manfaatdorlikka (shu jumladan, ularning investitsiyalarini amalga oshirishda) ega bo'lmasligi;

Kontragentni tanlashda ishtirok etuvchi tashabbuskor yoki Tashkilotning boshqa xodimlari yoki ularning yaqin qarindoshlari Kontragentda rahbarlik lavozimi yoki qarorlar qabul qilish bilan bog'liq lavozimlarda ishlamasligi;

Kontragent va Xarid komissiyasi a'zolari o'rtasida affillanganlik aloqalarining mavjud emasligi;

manfaatlar to'qnashuviga olib keladigan boshqa sharoitlar.

Manfaatlar to'qnashuvi mavjudligini tekshirishni Komplayens Kontragentlar tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarni manfaatlar to'qnashuvini deklaratsiyalash doirasida Tashkilot xodimlari tomonidan aks ettirilgan va tegishli reyestrda kiritilgan ma'lumotlar bilan taqqoslash orqali amalga oshiradi.

V. Tekshiruv natijalarini rasmiylashtirish va hujjatlashtirish

28. O'tkazilgan tekshiruv natijalari bo'yicha manfaatlar to'qnashuvi yoki korrupsiyaviy xatti-harakatlar aniqlangan taqdirda Komplayens ushbu yo'riqnomaning 4-ilovasida keltirilgan shaklda xulosa tuzadi. Kontragent tekshiruv natijalari to'g'risidagi xulosaga Komplayens o'tkazilgan tahlil va tahlilni tasdiqlovchi boshqa hujjatlarni ilova qiladi.

29. Real yoki potensial manfaatlar to'qnashuvi alomatlari aniqlangan taqdirda Komplayens uni tartibga solish zaruriyati to'g'risida choralarni ko'rish bo'yicha Xarid komissiyasi raisi yoki tashabbuskorga taklif kiritadi. Agar manfaatlar to'qnashuvi alomatlari Tashkilot xodimlarida aniqlangan bo'lsa, bu haqda

Komplayensni xabardor qiladi. Manfaatlar to'qnashuvi mavjud yoki mavjud emasligi bo'yicha o'tkazilgan tahlil yakunlari va uni tartibga solish bo'yicha choralar ham Kontragent tekshiruv natijalari to'g'risidagi xulosada aks ettiriladi.

30. Xatar indikatorlari aniqlanganda Komplayens Kontragent tekshiruv natijalari to'g'risidagi xulosada aniqlangan xatarlarni kamaytirishga yo'naltirilgan Kontragent bilan ishlash bo'yicha tavsiyalarni taklif qiladi va aks ettiradi (masalan, shartnomaga avans to'lovlarga taqiqni kiritish va boshqa).

31. Komplayens Kontragent tekshiruv natijalari to'g'risidagi xulosani Xarid komissiyasi raisi yoki tashabbuskorga taqdim etadi. Xarid komissiyasi raisi yoki tashabbuskor olingan xulosani xarid ishtirokchisini tanlash to'g'risida qarorni qabul qilish doirasida hisobga oladi, bu haqda xarid komissiyasi yoki Kontragent bilan to'g'ridan to'g'ri shartnoma tuzishdagi bayonnomada tegishli yozuv kiritiladi.

32. Kontragent va Tashkilot xodimi o'rtasida real manfaatlar to'qnashuvi mavjud bo'lgan taqdirda, u Xarid jarayonini davom ettirishdan oldin Tashkilotda manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha ichki hujjatga asosan tartibga solinishi zarur. Manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish imkoni bo'lmagan taqdirda Kontragent xarid jarayonida ishtirok etishdan chetlatilishi lozim.

33. Agar to'g'ridan to'g'ri haridlar doirasida Kontragentni tekshirish natijalariga ko'ra, korrupsiyaviy xavf-xatarning mavjudligini yoki korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining yo'qligini ko'rsatuvchi ma'lumotlar aniqlansa, u holda Kontragent bilan shartnoma tuzish ehtimoli haqidagi qaror tashkilot rahbari tomonidan qabul qilinadi.

34. Kontragent tekshiruv natijalari to'g'risidagi xulosa majburiy tartibda xarid qilish jarayonlari natijalari to'g'risidagi qaror qabul qilish, shartnoma bo'yicha kelishish va to'lovlarni amalga oshirish uchun talab etiluvchi hujjatlar paketiga qo'shib qo'yiladi.

35. Tekshiruv natijalari to'g'risidagi xulosa chiqqanidan boshlab, uch ish kunidan kechiktirmay Komplayens bu haqidagi ma'lumotni ushbu yo'riqnomaning 5-ilovasiga muvofiq shaklda Kontragentlarni tekshirish reyestriga kiritadi.

36. Kontragentlarni tekshirish reyestri va Kontragentlarni tekshirish natijalari, shuningdek, tekshiruv uchun ariza, Kontragentni tekshirish natijalari to'g'risidagi xulosa, Kontragentlar tomonidan taqdim etilgan hujjatlar hamda Komplayens tomonidan tegishli manbalardan olingan ma'lumotlar Kontragent bilan shartnoma munosabatlari to'xtatilgan kundan boshlab, kamida 3 (uch) yil Komplayensda saqlanadi.

37. Kontragentlarni tekshirish reyestri va Kontragentlarni tekshirish natijalari, shuningdek, tekshiruv uchun ariza, Kontragentni tekshirish natijalari to'g'risidagi xulosa, Kontragentlar tomonidan taqdim etilgan hujjatlar hamda Komplayens tomonidan tegishli manbalardan olingan ma'lumotlar konfedensial bo'lib, Tashkilot xodimlariga va xizmat vazifalari va vakolatlari bunday ma'lumotlardan foydalanishni o'z ichiga olmagan boshqa uchinchi shaxslarga oshkor qilinmaydi.

VI. Yakuniy qoida

38. Kontragentlarni tekshirish jarayoni doimiy ravishda Komplayens tomonidan monitoring qilib boriladi.

39. Davlat xaridlari va korrupsiyaga qarshi qonunchilikning ushbu yo'riqnomaga ta'sir qiladigan normalari o'zgarganda, ushbu yo'riqnoma qayta ko'rib chiqilishi kerak.

“Navoiyazot” AJ tomonidan
Kontragentlarni tekshirishga oid
yo‘riqnomaga 1-ilova

Yakuniy benefitsiarlar to‘g‘risida _____
(xaridlar ishtirokchisi) *

MA’LUMOTNOMA

№	F.I.Sh.	Tug‘ilgan sanasi	Shaxsning roli (rahbar / ta’sischi / yakuniy benefitsiar)	Shaxs rahbar/ ta’sischi/ yakuniy benefitsiar bo‘lgan davr	Ishtirok etish ulushi (faqat 10 foizdan ortiq ulushga ega ta’sischilar uchun), foizda
1.					
2.					
3.					
4.					
5.					
6.					
7.					
...					

**so‘nggi ikki yil uchun to‘ldiriladi*

Vakolatli shaxsning

F.I.Sh. _____

*Xarid ishtirokchisidagi vakolatli shaxsning
lavozimi* _____

*Ma’lumotnoma tuzilgan
sana* _____

“Navoiyazot” AJ tomonidan
Kontragentlarni tekshirishga oid
yo‘riqnomaga 2-ilova

Kontragentdan tekshirish uchun so‘raladigan hujjatlar

O‘zbekiston Respublikasida yuridik shaxs sifatida ro‘yxatdan o‘tgan Kontragentlardan talab qilinadigan hujjatlar:

t/r	Hujjat nomi	Yuridik shaxs (YUSH) / Yakka tartibdagi tadbirkor (YATT)	Yangi Kontragent	Joriy Kontragent
1	Davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi guvohnomaning nusxasi	YUSH / YATT	Majburiy	n/p
2	Soliq hisobiga qo‘yish, shu jumladan STIR to‘g‘risida ma’lumotlar	YUSH / YATT	Majburiy	Majburiy
3	Yuridik shaxslarning yagona Davlat reyestriga kiritish to‘g‘risida ma’lumot	YUSH / YATT	Majburiy	Majburiy
4	Ustav va boshqa ta‘sis hujjatlarining nusxasi	YUSH	Majburiy	O‘zgarish bo‘lganda so‘rab olish
5	Pasport nusxasi	YATT	Majburiy	O‘zgarish bo‘lganda so‘rab olish
6	Ishonchnoma	YUSH / YATT	Majburiy	Majburiy
7	Kontragent egaligi tuzilmasi, bunga benefitsar mulkiy egalarni ham hisobga olgan holda barcha mulk egalari kiritiladi	YUSH	Majburiy	O‘zgarish bo‘lganda so‘rab olish
8	So‘nggi hisobot yili uchun buxgalteriya hisoboti yoki so‘nggi hisobot yili uchun auditorlik xulosasi	YUSH / YATT	Majburiy	Majburiy
9	Ko‘rsatilgan ishlar/xizmatlarni bajarish uchun malakali kadrlarning mavjudligi to‘g‘risida ma’lumot (xat va / yoki tasdiqlovchi hujjatlar shaklida taqdim etilishi mumkin)	YUSH	Majburiy	O‘zgarish bo‘lganda so‘rab olish
10	Muvofiqlik litsenziyalari va	YUSH / YATT	Sotib olingan tovarlar/ishlar/xizmatlar	Sotib olingan tovarlar/ishlar/xizmatlar

t/r	Hujjat nomi	Yuridik shaxs (YUSh) / Yakka tartibdagi tadbirkor (YATT)	Yangi Kontragent	Joriy Kontragent
	sertifikatlari		turiga qarab majburiy	turiga qarab majburiy

“Navoiyazot” AJ tomonidan
Kontragentlarni tekshirishga oid
yo‘riqnomaga 3-ilova

Kontragentlarni tekshirish uchun ochiq axborot manbalari

1. Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tekshirish Davlat xizmatlari agentligi platformasi - https://fo.birdarcha.uz/s/ru_landing
2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi - <http://registr.stat.uz/>
3. Soliq organlarining elektron davlat xizmatlari portali - <https://my2.soliq.uz/main/info/debtors?lang=uz>
4. O‘zbekiston Respublikasi ochiq ma’lumotlar portali - <https://data.gov.uz/ru>
5. Toshkent shahar yer resurslari va Davlat kadastr boshqarmasi - <http://kadastr.uz/ru/>
6. Insofsiz ijrochilarning yagona reyestri - <http://xarid.uz/unfairexecutor>
7. Iqtisodiy, ma’muriy, jinoiy va fuqarolik sudlarining sud hujjatlari - <https://public.sud.uz/#!/sign/view>
8. Offshor zonalar ro‘yxati- <http://www.fatf-gafi.org/publications/high-risk-and-other-monitored-jurisdictions/documents/call-for-action-february-2021.html>
9. AQSh maxsus toifadagi va taqiqlangan shaxslar ro‘yxati (yoki WorldCheck ma’lumotlar bazasi)- <https://sanctionssearch.ofac.treas.gov/>

Ushbu ro‘yxat Komplayens tomonidan tekshirish uchun tavsiya etilgan manbalar ro‘yxati bo‘lib, zarur bo‘lganda kengaytirilishi mumkin.

Kontragentni tekshirish haqidagi hisobot

1.	Ishtirokchining ismi				
2.	STIR				
3.	Ro‘yxatga olingan sana				
4.	Yuridik va amaldagi manzili				
5.	Rahbarning F.I.Sh.				
6.	Ta‘sischilarning F.I.Sh.				
7.	Yakuniy benefitsiarlarning F.I.Sh.				
8.	Ishtirokchi tadbirkorlik subyektlarining Yagona Davlat reyestrda bor	Ha	☒	Yo‘q	☒
9.	Ishtirokchidan imzo chekuvchi shartnoma tuzishga haqli	Ha	☒	Yo‘q	☒
10.	Ishtirokchining asosiy faoliyati xarid predmetiga mos keladi	Ha	☒	Yo‘q	☒
11.	Soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lashda qarzdorliklarning yo‘qligi	Ha	☒	Yo‘q	☒
12.	Ishtirokchiga nisbatan joriy etilgan qayta tashkil etish, tugatish (likvidatsiya), bankrotlik tartib-taomillarining yo‘qligi	Ha	☒	Yo‘q	☒
13.	Insofsiz ijrochilarning yagona reyestrda ishtirokchi haqida yozuvning yo‘qligi	Ha	☒	Yo‘q	☒
14.	Tashkilot tizimida ishtirokchi bilan ishlashning avvalgi salbiy tajribasining yo‘qligi	Ha	☒	Yo‘q	☒
15.	Ishtirokchi xaridning boshqa ishtirokchilari bilan affillanmagan	Ha	☒	Yo‘q	☒
16.	Manfaatlar to‘qnashuvi / ishtirokchining Tashkilot tizimi xodimlari bilan affillanganligi haqida	Ha	☒	Yo‘q	☒

ma'lumot yo'qligi

17. Aniqlangan manfaatlar to'qnashuvini Manfaatlar to'qnashuvlarini tartibga solish chora-tartibga solish chora-tadbirlari Manfaatlar to'qnashuvlarini tartibga solish chora-tadbirlari tavsifi
18. Korrupsiyaga oid qoidabuzarliklar ehtimoli haqida ma'lumotlar Mavjud emas / Manba: [havola], [Harid jarayonlari ishtirokchisining korrupsiyaga oid qoidabuzarligi/poraxo'rliqi tavsifi]
19. Ishtirokchi tekshirish uchun barcha zarur hujjatlarni taqdim etgan

Ha	☒	Yo'q	☒
----	-------------------------------------	------	-------------------------------------
- Agar taqdim etmagan bo'lsa, taqdim etilmaganlarini ko'rsating:
20. Hisobotga ilova qilingan boshqa materiallar
a) [Hujjat / materialning qisqacha tavsifi]

**Tekshirish natijalari asosida
asosiy xulosalar va kuzatishlar**

Xarid jarayoni ishtirokchisini tekshirishni amalga oshirgan xodim haqida ma'lumotlar
F.I.Sh.

Lavozimi

Hisobot tuzilgan sana

Lotning raqami

Imzo

**“Navoiyazot” AJ tomonidan
Kontragentlarni tekshirishga oid
yo‘riqnomaga 5-ilova**

Xarid jarayonlari ishtirokchilarini/Kontragentlarni tekshirish reyestri

[illegible]